

**HIND TILSHUNOSLIGI VA KELIB CHIQISH TARIXIY BOSQICHLARI**

Sa'dullayeva Mohichehra Habibullo

qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz filologiyasi o'qitish

metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti

Xitoy tili 101-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu ishda hind tilshunosligining shakllanishi, rivojlanishi va tarixiy bosqichlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda Hindiston hududida qadimdan mavjud bo'lgan til madaniyati, sanskrit tili va uning grammatik an'analari asos qilib olingan. Xususan, tilshunoslikning ilk nazariy poydevorini yaratgan Paniniyning "Ashtadhyayi" asari, vedalar tilining fonetik va grammatik tahlillari, shuningdek, hind filologiyasining o'rta asr hamda zamonaviy davrlardagi rivojlanish jarayonlari ko'rib chiqilgan. Ishda hind tilshunosligi bosqichma-bosqich qanday taraqqiy etgani, turli davr olimlarining til qurilishi, fonetika, morfologiya, semantika va sintaksisga qo'shgan hissasi ochib beriladi. Mazkur annotatsiya hind tilshunosligining nazariy asoslarini, tarixiy taraqqiyot yo'lini hamda bugungi kunda ushbu yo'nalishning ahamiyatini yoritib berishga qaratilgan.

**Kalit sozlar:**1. Hind tilshunosligi. 2. Sanskrit. 3. Paniniy .4. Ashtadhyayi. 5. Veda tili 6. Brahman davri. 7. Til tarixi. 8. Fonetika. 9. Morfologiya. 10. Semantika. 11. Sintaksis. 12.Grammatik an'ana. 13. Filologiya. 14. Dravid tillari. 15. Hind-yevropa tillari. 16. Tarixiy bosqichlar. 17. Til madaniyati. 18. Tilshunoslik maktablari. 19. Til qurilishi. 20.Qadimgi hind olimlari.

**АННОТАЦИЯ:**В данной работе научно освещены формирование, развитие и исторические этапы индийского языкознания. В исследовании в качестве основы рассмотрены древняя языковая культура Индии, санскрит и его грамматические традиции. В частности, проанализированы труд Панини «Аштадхьяи», являющийся первым теоретическим фундаментом языкознания,

фонетические и грамматические особенности ведийского языка, а также процессы развития индийской филологии в средневековый и современный периоды. В работе раскрывается поэтапное развитие индийского языкознания и вклад ученых разных эпох в изучение структуры языка, фонетики, морфологии, семантики и синтаксиса. Данная аннотация направлена на освещение теоретических основ индийского языкознания, его исторической эволюции и значимости данного направления в наши дни.

**Ключевые слова:** 1. Индийское языкознание. 2. Санскрит. 3. Панини. 4. Аштадхьяи. 5. Ведийский язык. 6. Период брахманов. 7. История языка. 8. Фонетика. 9. Морфология. 10. Семантика. 11. Синтаксис. 12. Грамматическая традиция. 13. Филология. 14. Дравидийские языки. 15. Индоевропейские языки. 16. Исторические этапы. 17. Языковая культура. 18. Лингвистические школы. 19. Строение языка. 20. Древнеиндийские учёные.

**ANNOTATION:** This study provides a scholarly overview of the formation, development, and historical stages of Indian linguistics. The research is based on the ancient linguistic culture of India, the Sanskrit language, and its grammatical traditions. In particular, it analyzes Panini's work "Ashtadhyayi", which laid the first theoretical foundation of linguistics, as well as the phonetic and grammatical features of the Vedic language and the development of Indian philology during the medieval and modern periods. The work reveals the gradual evolution of Indian linguistics and the contributions of scholars from different eras to the study of language structure, phonetics, morphology, semantics, and syntax. This annotation aims to highlight the theoretical foundations, historical development, and contemporary significance of Indian linguistics.

**Keywords:** 1. Indian linguistics. 2. Sanskrit. 3. Panini. 4. Ashtadhyayi. 5. Vedic language. 6. Brahman period. 7. History of language. 8. Phonetics. 9. Morphology. 10. Semantics. 11. Syntax. 12. Grammatical tradition. 13. Philology. 14. Dravidian languages. 15. IndoEuropean languages. 16. Historical stages. 17. Language culture. 18. Linguistic schools. 19. Structure of language. 20. Ancient Indian scholars.

**摘要:**本研究对印度语言学的形成、发展及其历史阶段进行了学术性的概述。研究以印度古代语言文化、梵语及其语法传统为基础。特别分析了波你尼的著作《八章书 (Ashtadhyayi)》，该著作为语言学奠定了最早的理论基础，同时探讨了

语的语音和语法特征，以及印度语文学在中世纪和现代时期的发展过程。本文揭示了印度语言学的逐步演变，以及不同时代学者在语言结构、语音学、形态学、语义学和句法学研究中的贡献。本摘要旨在阐明印度语言学的理论基础、历史发展以及其在当代的重要意义。关键词:1. 印度语言学 2. 梵语 3. 潘尼尼 4. 《八章书》 (Ashtadhyayi) .5. 吠陀语 6. 婆罗门 时期.7. 语言历史 .8. 语音学 9. 形态学. 10. 语义学.11. 句法学.12. 语法传统.13. 语言学 / 文献 学. 14. 达罗毗荼语系. 15. 印欧语系. 16. 历史阶段. 17. 语言文化. 18. 语言学派.19. 语言结构. 20. 古印度学者.

Qadimgi hind tili — miloddan avvalgi 2-ming yillik o‘rtalarida shimoliy-g‘arbiy Hindistonga bostirib kirgan qadimiy oriylar tili; Hindiston yarim orolining shim. va markaziy qismlarida tarqalgan. Qadimgi hind tili hindevrova tillarining dastlabki, ilk vakillaridan hisoblanib, qadimiy eroniy tillar (avesto tili, qadimiy fors tili) ga yaqin qarindosh bo‘lib, ular bilan birgalikda oriy tillar birligini tashkil etadi. Hindiston bo‘ylab tarqalish jarayonida Qadimgi hind tili. substrat tillar (dravid tillari, munda tillari)ning bir qancha xususiyatlarini o‘ziga singdiradi. Qadimgi hind tilit.da xronologik jihatdan va lahjaviy asosiga ko‘ra bir-biridan farqlanuvchi 2 ta til mavjud — Hindistonning shim.g‘arbida veda tili va shim. markaziy qismida sanskrit. Prakritlar (o‘rta hind tillari) bilan bo‘lgan aloqalar, bir tomondan, Qadimgi hind tilit.da ko‘plab prakritizmlarning paydo bo‘lishiga, ikkinchi tomondan, sanskritning sezilarli ta’siri bo‘lgan prakrit lahjalari asosida Qadimgi hind tilining gibrid ko‘rinishlari shakllanishiga olib kelgan. Oriylarning Hindistonga kirib kelgungacha bo‘lgan ko‘chib yurish davri G‘arbiy Osiyoning qadimiy xalqlari tillaridagi ko‘plab qadimiy hind atoqli

otlari, ma'budlarning nomlari, yilqichilik atamalarida o'z aksini topgan. Veda tili va sanskritdan tashqari yana boshqa qadimiy hind lahjalari ham bo'lgan, lekin ular tegishli matnlarda saqlanib qolmagan. Ular asta-sekin rivojlana borib, bir qancha o'rta hind tillariga asos bo'lgan

.Qadimgi Hindiston jahon tilshunosligi tarixida tilshunoslik fanining beshigi, markazi sifatida tan olinadi va umum tomonidan e'tirof etiladi. Bu - mutlaq haqiqat. Chunki til masalalariga bo'lgan qiziqish, tilga oid hodisalar bilan jiddiy va puxta shug'ullanish ilkbor Hindistonda - hind olimlari, filologlari tomonidan boshlab berildi. Ayni jarayonning boshlanishi dastawal sof amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Aniqrog'i, 15 asr ilgari yozilgan qadimgi hind adabiy tili yozuvida - sanskritda yaratilgan qadimgi hindlarning diniy madhiyalari - Vedalar 'tili davrlar o'tishi bilan mamlakat aholisining so'zlashuv tilidan (prakritdan) farqlanib qola boshladi. Boshqacha aytganda, qadimgi yozma yodgorliklar tili (yozma nutq) bilan so'zlashuv tili (jonli nutq) orasida ajralish, nomoslik, «ziddiyat» yuzaga keldi. Ushbu ziddiyatni, farqlanishni yo'qotish uchun hind olimlari qadimiy yozma yodgorliklar tilini o'rganishga, tadqiq qilishga, ulami ommaviylashtirishga jiddiy kirishdilar. Ular qadimgi Hindistonda alohida e'tiborga, hurmatga sazovor bo'lgan Vedalardagi ma'nosi tushunarli bo'lmagan so'zlarni aniqlab, ularning ma'nosini izohladilar, sharhladilar. Vedalar tiliga oid maxsus izohli lug'atlar tuzdilar, matnni fonetik va grammatik jihatdan tahlil qildilar. Xullas, Vedalar tilidagi so'z va jumlar ma'nosini, ularning aniq talaffuzini, shaklini saqlab qolishga bo'lgan qat'iy intilish qadimgi Hindistonda tilshunoslikning yuzaga kelishiga asosiy sabab bo'ldi. Hindlar qadimiy davming eng buyuk fonetikachilari va grammatikachilari sifatida tanilganlar. Ular fonetika sohasida yunonlardan ham oldin unli va undosh tovushlarni farqlaganlar, portlovchi va sirg'aluvchi, jarangli va jarangsiz

tovushlarni, tovush birikmalarini, bo'g'in, urg'u, intonatsiya, cho'ziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni, jarayonlarni bilganlar. Shular yuzasidan mukammal ma'lumotlar qoldirganlar. Qadimgi hind tilshunosligida fonema haqida ham muayyan tushunchalar bo'lgan. Qadimgi hindlar so'zlarning faqat ma'no tomonidagina emas, balki tovush tomonida ham o'zgarishlar bo'lishini bilganlar. Shunga ko'ra ular

so'zlaming tovush jihatiga alohida e'tibor berganlar. Tovush haqida, tovushlaming o'zgarishi haqida tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shuningdek, qadimgi hindlar tovushlaming fiziologik artikulyatsion xususiyatlari, boshqa tovushlar bilan almashinishi, bir tovushning boshqa tovush ta'siri bilan o'zgarishi (kombinator o'zgarish) kabi hodisalarni aniqlashga ham e'tibor berganlar. Ular tovushlaming artikulyatsion - fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasnif qilganlar. Shu asosda, yuqorida aytilganidek, tovushlarni unli va undoshlarga ajratganlar, nutq a'zolarining yaqinlashuvidan unli va undoshlarga ajratganlar, bir-birlariga ta'siridan, ya'ni, tegishidan undoshlar hosil bo'lishini qayd etganlar. Agar yunon filologlari tovush almashinuvi masalasiga umuman ahamiyat bermagan bo'lsalar, hind tilshunoslari bu jarayonga alohida e'tibor berganlar, tadqiqot olib borganlar, ayni jarayonning o'ziga xosliklarini aniqlab berganlar. Qiyoslang: sanskrit tiliga oid so'zlarda, masalan, vidma so'zi «biz bilamiz» ma'nosini bersa, veda «men bilaman» tushunchasini, vaidyas so'zi esa «olim», «ilimli» ma'nosini berishini ko'rsatib berganlar. Qayd etilgan ma'no (tushuncha) o'zgarishlari esa i - e - ai unli tovushlaming almashinuvi natijasi ekanligi haqida ishonarli, asosli fikrlarni bayon qilganlar. Qadimgi hind tilshunoslari grammatika - morfologiya sohasida ham ancha ishlarni amalga oshirdilar. Ular bu yo'nalishda ham grek tilshunoslaridan ancha ilgari ketdilar. Aniqrog'i, hind tilshunosi Guru morfologiyani uch bo'limdan tashkil topishini aniq ko'rsatib beradi va unga quyidagilarni kiritadi: 1. So'zlar tasnifi (so'z turkumlari). 2. So'z yasalishi. 3. So'z o'zgarishi. Hindlar to'rtta so'z turkumini farqlaganlar: ot, fe'l, old ko'makchi va yuklama. Hindlarda ot predmet ifodalovchi, fe'l esa harakat, holat ifodalovchi so'z sifatida beriladi. Old ko'makchilar esa otlarning, asosan, fe'llarning ma'nosini belgilaydi. Yuklamalar esa nia'nolariga ko'ra 1) bog'lovchi va 2) qiyoslovchi kabi turlarga ajratiladi. Olmosh va ravishlar esa ot va fe'l turkumlariga qo'shib yuborilgan, alohida ajratilmagan. Yunonlardan farqli holda hindlar so'z turkumlarini gap boiaklaridan farqlaganlar, ya'ni, ular bilan qorishtirmaganlar, adashtirmaganlar. Shunga ko'ra, hindlar, yuqorida aytilganidek, otlarni predmet, fe'llar harakat ifodalovchi so'z sifatida «baholaganlar». Qadimgi hindlar so'zlarni tahlil qilish,

tarkibini o'rganish jarayonida ulami quyidagi boiaklarga ajratganlar: 1) o'zak, 2) suffiks, 3) qo'shimcha (turlovchi qo'shimcha). Shuningdek, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi morfemalar farqlangan. Yevropa olimlari hind tilshunoslarining ishlari bilan yaqindan tanishib, so'zlardan o'zak, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi morfemalarni ajratishga «kirishganlar». Hindlar otlarda yettita kelishikni qayd etganlar: 1) bosh kelishik, 2) qaratqich kelishigi, 3) jo'nalish kelishigi, 4) tushum kelishigi, 5) qurol kelishigi, 6) chiqish (ablativ) kelishigi, 7) o'rin kelishigi. Hind tilshunoslari qo'shma so'zlarning o'ttizga yaqin turini farqlaganlar. Ular qo'shma so'zlarning tuzilishida komponentlar orasidagi munosabatlarga e'tibor berganlar. Masalan: ot+ot//fe'l; sifat//sifatdosh //ravish+ot //sifat//fe'l; son+ot va boshqalar. Hind grammatikachilari fe'l turkumining morfologik kategoriyalarini mukammal ishlagan edilar. Ular fe'lning uch zamonga birlashadigan yetti xil zamon formasini: hozirgi zamon, o'tgan zamonning tugallangan, tugallanmagan, uzoq o'tgan zamon tur-larini, kelasi zamon, odatdagi kelasi zamon va juda kam qo'l-laniladigan shart fe'li shaklini ajratganlar. Hindlar qadimgi davrlardayoq fe'lning to'rtta maylini - aniqlik, istak, buyruq va shart mayllarini bilganlar. Fe'lning aniq, o'rta va majhullik nisbatlari ajratilib, har biri alohida ta'riflangan, tavsiflangan. Hindlar sanskrit tilida fe'lning uchta shaxs va uchta son: birlik, juftlik va ko'pliklarga ko'ra tuslanishini ko'rsatganlar. Hind tilshunoslari fikr ifodalash birligi bo'lgan gapning muhimligini inkor qilmagan boisalarida, sintaksis masalalari bilan maxsus shug'ullanmaganlar. Ular sintaksisda so'zlarning birikish tartibi, kelishik, zamon va mayl formalarining birikishi kabi masalalarni o'rganish bilan chegaralanganlar. So'z fikr ifodalash imkoniyatiga ega emas, ya'ni, so'z gapdan tashqari mavjud emas deb, gapni tilning asosiy birligi hisoblaganlar. Xullas, qadimgi hindlar fonetika va morfologiyaga nisbatan sintaksis masalalarida ancha bo'sh bo'lganlar. Dastlabki muqaddas hind qo'shiqlari eramizdan 1500 yillar oldin paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi. Sanskrit eramizdan oldin V asrdayoq jamiyatning kundalik aloqa vositasi vazifasini yo'qotib, o'lik tilga aylangan bo'lsa ham, diniy va madaniy an'analarni o'zida saqlovchi mumtoz til sifatida saqlanib

keldi. Qadimgi vedalar tilini sharhlash, soʻzlarning toʻgʻri talaffuzini saqlab qolish ehtiyoji tilshunoslik fanining paydo boʻlishiga olib keldi.

Xulosa:Ushbu ishda hind tilshunosligining shakllanishi, rivojlanishi va tarixiy bosqichlari tizimli tarzda oʻrganildi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, hind tilshunosligi qadimiy davrlardan boshlab murakkab va boy ilmiy anʼanaga ega boʻlgan. Sanskrit tili va Paniniyning Ashtadhyayi asari hind tilshunosligining nazariy asoslarini yaratgan boʻlib, fonetika, morfologiya, semantika va sintaksis sohalarida mustahkam poydevor boʻldi. Oʻrta asr va zamonaviy davrlarda hind filologiyasi yanada rivojlanib, turli maktablar va olimlar tomonidan tilning turli jihatlari chuqur tadqiq qilindi. Shu tariqa, hind tilshunosligi nafaqat tarixiy jihatdan boy merosga ega, balki bugungi kunda tilshunoslik va filologiya sohalarida amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot hind tilshunosligining ilmiy asoslari, tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy ahamiyatini toʻliq yoritishga xizmat qiladi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

R.Rasulov “Umumiy tilshunoslik” Toshkent 2013

A.Nurmonov 2012.5

<https://uz.wikipedia.org>

<https://samxorfil.uz>